



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# 2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI .....	12
<b>Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich</b>	
<b>Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI .....	16
<b>Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi</b>	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH .....	20
<b>Abbos Saydullaev</b>	
<b>Iqboloy Choriyorova</b>	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI .....	31
<b>Ibragimova Rayxon Tojibayevna</b>	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	36
<b>Elnoraxon Muminova Abdukurimovna</b>	
<b>Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi</b>	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	42
<b>Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi</b>	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	47
<b>Narzulloeva Fariza Akmalевна</b>	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION .....	53
<b>Gaybullayev Sarvar Uktam ugli</b>	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI .....	59
<b>Mizamova Umida Jamoliddin qizi</b>	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI .....	64
<b>Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich</b>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	72
<b>Olimova Shahlo Bahodir qizi</b>	
<b>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI .....	76
<b>Toshimov Azizbek Hakimovich</b>	
<b>Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li</b>	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI .....	81
<b>Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li</b>	
TEMIR YO'L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI .....	86
<b>Baymatov Atxam Axmadaliyevich</b>	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
<b>Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi</b> OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN .....	97
<b>Sardor Kuvandikov</b> ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ .....	106
<b>Абдуллаева Зульфия Иззатовна</b> NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
<b>Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li</b> JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO Tajribalar Qiyosiy Tahlili .....	117
<b>G'afforov Kamronbek</b> “O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI” AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	123
<b>Bobojonova Zarnigor Shokirovna</b> MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILYI KOMPONENTLARI.....	132
<b>Muxitdinov Xudayar Suyunovich</b> <b>Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi</b> O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI .....	137
<b>Ergasheva Iroda Ibrohim qizi</b> FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	141
<b>Maxmudov Omon To'xtayevich</b> RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
<b>Pardayev Orifjon Charshamiyevich</b> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR Tajribalaridan FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
<b>Omonova Zarina Xudoymurodovna</b> RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli “suv ta'minot servis” AJ misolida).....	160
<b>Doniyorova M.</b> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
<b>Komilova Shaxnoza Komiljon qizi</b> SUN'Y INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODEL (EVC1) .....	169
<b>Xaydarova Malika Shokirjon qizi</b> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ .....	174
<b>Нодира Илхамовна Саидахмедова</b> <b>Жамолiddин Ярашевич Нуриллаев</b> THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
<b>Allaberganov Zakir Gaibovich</b> <b>Alimova Guzal Abdukhakimovna</b> BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODEL.....	188
<b>Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich</b>	



AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
<b>Xamroyev Anvar Ashurovich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH .....	202
<b>Ismaylov Kuvatbay Sarsenbayevich</b>	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI .....	206
<b>Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH .....	212
<b>Hamroyeva Feruza Azizjon qizi</b>	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	217
<b>Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich</b>	
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	226
<b>Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li</b>	
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI.....	231
<b>Nurmatov Samandar G'ayratovich</b>	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARI .....	238
<b>Bau Long</b>	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ .....	244
<b>Axrarova Shodiyxon Ja'farxon kizi</b>	
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI .....	247
<b>Djurayev Davlat Djonibekovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI .....	250
<b>Raxmanova Laylo Baxodirovna</b>	
SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH .....	256
<b>Payziyev Hamid Orziqulovich</b>	
PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	260
<b>A.A. Ismailov</b>	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI .....	266
<b>Elmurodov Shohzod Shavkatovich</b>	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATI — MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY INSTRUMENTI SIFATIDA.....	272
<b>A.A. Ismailov</b>	
ETNOGRAFIK RESURSLARDAN FOYDALANISHNING STRATEGIK BOSHQARUV TAMOYILLARI ASOSIDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	278
<b>Axmedov Ikrom Akramovich</b>	
O'ZBEKISTON TASHKILOTLARIDA UCHRAYDIGAN BOSHQARUV MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI .....	285
<b>Abiyev Jahongir Ne'matovich</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODEL VA ILMIY YONDASHUVLARI.....	290
<b>Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich</b>	



O'ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQAMLI SALOHİYATINI BAHOLASH: RSI INDEKSI ASOSIDA ILMIY TAHLIL.....	294
<b>Odinayev Nuriddin Ramozon o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	300
<b>Hakimov Ikrom Izzatillo o'g'li</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA STRATEGIK ISLOHOTLARNING AHAMIYATI.....	305
<b>Amanov Akram Mirzayevich</b>	
FOND BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI INVESTITSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	310
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich</b>	
O'ZBEKISTONDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH JARAYONINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI TAHLILI.....	316
<b>Atakulov Askad Raimkulovich</b>	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 KONSEPSIYASINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	322
<b>Ashurov Furkatjon Shuxratovich</b>	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ «ЗЕЛЕННЫХ» ТЕХНОЛОГИЙ В ЖИЛИЩНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	326
<b>Tojievа Dильфуза Бобомуратовна</b>	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOYIY TARMOQLAR MARKETINGIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	334
<b>Baltabayev Hurrambek To'liqinovich</b>	
METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI.....	341
<b>Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich</b>	
<b>Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA SANOAT TARMOG'INING ROLINI STATISTIK O'RGANISH.....	354
<b>To'rayeva Zilola Turg'unovna</b>	

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA SANOAT TARMOG'INING ROLINI STATISTIK O'RGANISH



To'rayeva Zilola Turg'unovna  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Iqtisodiy statistika kafedrasida PhD katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat tarmog'ining tutgan yetakchi o'rni va strategik ahamiyati zamonaviy statistik ma'lumotlar asosida atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot davomida sanoat tarmog'ining yalpi ichki mahsulotdagi (YIM) salmoqli ulushi, qo'shilgan qiymat hajmining ijobiy o'zgarish dinamikasi, ishlab chiqarish sur'atlari hamda ularning makroiqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi bevosita ta'siri yuqori aniqlikda baholangan. Yakuniy natijalar sanoat tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining barqaror taraqqiyoti va tarkibiy o'zgarishlarida eng asosiy drayver (yetakchi kuch) bo'lib xizmat qilayotganini to'laqonli asoslab beradi.

**Kalit so'zlar:** sanoat tarmog'i, yalpi ichki mahsulot (YIM), qo'shilgan qiymat, sanoat ishlab chiqarishi, statistik tahlil, makroiqtisodiy o'sish, tarkibiy diversifikatsiya.

**Аннотация.** В данной статье на основе актуальных статистических данных всесторонне проанализированы роль и стратегическое значение промышленного сектора в экономике Республики Узбекистан. В ходе исследования с высокой точностью оценены весомая доля промышленности в валовом внутреннем продукте (ВВП), положительная динамика объемов добавленной стоимости, темпы производства, а также их непосредственное влияние на обеспечение макроэкономического роста. Полученные результаты убедительно доказывают, что промышленный сектор выступает ключевым драйвером устойчивого развития и структурных преобразований в экономике страны.

**Ключевые слова:** промышленный сектор, валовой внутренний продукт (ВВП), добавленная стоимость, промышленное производство, статистический анализ, макроэкономический рост, структурная диверсификация.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the leading role and strategic importance of the industrial sector in the economy of the Republic of Uzbekistan, backed by current statistical data. The study highly evaluates the significant share of the industrial sector in the Gross Domestic Product (GDP), the positive dynamics of value-added growth, production trends, and their direct impact on ensuring macroeconomic growth. The final results conclusively demonstrate that the industrial sector serves as a primary driver of sustainable development and structural transformation in the country's economy.

**Keywords:** industrial sector, Gross Domestic Product (GDP), value added, industrial production, statistical analysis, macroeconomic growth, structural diversification.

## KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishida sanoat tarmog'i muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasida sanoatni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, ushbu sohada qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-sonli Farmonida<sup>1</sup> sanoat tarmoqlarini modernizatsiya

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.10.2023 yildagi PF-169-son <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>.



qilish, diversifikatsiyalash va ularning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

So'nggi yillarda sanoat tarmoqlarida ilg'or texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omiliga aylanmoqda. Shu bois sanoat tarmog'ining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini statistik jihatdan baholash, uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat tarmog'ining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. X.N. Nabiyev o'zining "Sanoat statistikasi" o'quv qo'llanmasida sanoat mahsuloti, ishlab chiqarish hajmi hamda qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarini statistik baholash metodologiyasini batafsil yoritib bergan. Muallif sanoat tarmog'ining iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy daromadni shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi muhim o'rnini alohida ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalarida sanoatni modernizatsiya qilish, diversifikatsiyalash, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda investitsiyalarni faol jalb etish iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Statistika agentligining rasmiy nashrlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmi, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda tarkibiy o'zgarishlari bo'yicha muhim statistik ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur manbalar sanoat tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari ilmiy asosda tadqiq etish imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, statistik to'plamlar hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlardan axborot manbai sifatida foydalanildi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, taqqoslash, indeks usuli va iqtisodiy-statistik baholash metodlaridan keng foydalanildi. Mazkur usullar sanoat tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni kompleks baholash imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining 2010-2024-yillardagi sanoat ishlab chiqarishi hajmi, sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati hamda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari tanlab olindi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida sanoat tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissassi statistik jihatdan tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti 1 454,6 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 6,5 foizga oshgan. Mazkur davrda sanoat tarmog'ining o'sish sur'ati 6,8 foizni tashkil etib, yalpi ichki mahsulot o'sishiga sezilarli ijobiy hissa qo'shgan.

2010-2024-yillar davomida taqqoslama narxlarda YalM hajmi 625,8 trln so'mdan 1 454,6 trln so'mga yetib, 2,3 baravar oshgan. Shu davrda sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati 165,6 trln so'mdan 365,9 trln so'mga yetib, 2,2 baravar ko'paygan. 2020-2024-yillarda sanoat tarmog'i qo'shilgan qiymatining tarkibiy tahlili ishlab chiqarish sanoati ulushi eng yuqori ekanligini ko'rsatdi. Mazkur ko'rsatkich 2024-yilda 251,3 trln so'mga yetib, 2020-yilga nisbatan 2,2 baravar oshgan. Shuningdek, tog'-kon sanoati, elektr energiyasi ishlab chiqarish hamda kommunal xizmatlar sohalarida ham barqaror o'sish kuzatildi. Olingan natijalar sanoat tarmog'ining iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat yaratish, investitsiyalarni jalb etish va eksport salohiyatini oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-sonli<sup>2</sup> Farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-sonli Qonuni<sup>3</sup> hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli<sup>4</sup> Qarorida sanoat va statistika sohalarini rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.10.2023 yildagi PF-169-son <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>.

3 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.08.2021 yildagi O'RQ-707-son <https://lex.uz/ru/docs/-5569619>.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.08.2020 yildagi PQ-4796-son <https://lex.uz/docs/-4926736>.



Sanoat tarmoqlarida diversifikatsiya dasturlarining joriy etilishi, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash bazasining mustahkamlanishi hamda zamonaviy texnologiyalarning keng tatbiq etilishi respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatbardosh sanoat zanjirlarini yaratish va ularga investitsiyalar hajmini oshirish orqali erishiladi. Ayniqsa, neft-gaz kimyosi, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda yashil iqtisodiyot bilan bog'liq sanoat tarmoqlari mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayverlari hisoblanadi<sup>5</sup>.

Sanoat tarmog'i mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratishi, aholi ehtiyojlarini qondirishi hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog'liqligi orqali alohida ahamiyat kasb etadi. Moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.


Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti joriy narxlarda 1 454 573,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 6,5 foizga o'sgan. Shu davrda sanoat tarmog'ining o'sish sur'ati 6,8 foizni tashkil etgan va YaIM o'sishiga 1,7 foizlik punkt miqdorida ijobiy hissa qo'shgan. Hisobot yilida respublika korxonalari tomonidan 885 818,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 106,8 foizni tashkil etgan.

Sanoat tarmoqlarida diversifikatsiya jarayonlarining jadallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishi tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirmoqda. Shu bilan birga, davlatning sanoat klasterlaridagi ishtiroki ijtimoiy manfaatlarni ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy va yetakchi tarmog'i bo'lib, uning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda o'sishiga xizmat qiladi. Mamlakatimizda statistika ma'lumotlarining sifati va ishonchligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni xalqaro standartlar asosida xolis va ishonchli aks ettirish imkonini bermoqda. Shu sababli sanoat tarmog'i faoliyatini statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirishda xalqaro darajada tavsiya etilgan tushunchalar, tasniflar va uslubiyatlarga amal qilinishi statistik ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligi va ishonchligini ta'minlaydi. Biroq jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi hamda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish zarurati sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

2021-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi korxonalari tomonidan 451,6 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,7 foizni tashkil etgan. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,0 foizni tashkil etgan (1-rasm)<sup>6</sup>.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2010-2024 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, trln.so'm<sup>7</sup>.

Har bir sanoat korxonasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Sanoat korxonalarining samarali faoliyati ishlab chiqarish hajmining ortishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi farovonligining yuksalishi hamda iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga xizmat qiladi.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 30 dekabr 2020 yil № 275-276 (7746-7747).

6 [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti.

7 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2010-2024-yillar bo'yicha statistik axborotnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.



O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarini tomonidan 2010-yilda 38,1 trln so'mlik, 2024-yilda esa 885,8 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan. Shuningdek, 2024-yilda sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 2023-yilga nisbatan 106,8 foizni tashkil etib, tarmoqda barqaror o'sish sur'atlari kuzatilayotganligini ko'rsatdi.

Sanoat tarmog'i samaradorligini yanada oshirish maqsadida korxonalarda raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy bilimlarini muntazam ravishda yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot muassasalari va sanoat korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish sanoat tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval  
O'zbekiston Respublikasi YaIM, sanoat QQ hajmining o'zgarish dinamikasi<sup>8</sup>

Yillar	YaIM, mlrd.so'm		YaIM o'sishi (kamayishi) sur'ati, %		Sanoat tarmog'ining QQ, mlrd.so'm		Sanoat tarmog'ining QQning o'sishi (kamayishi) sur'ati, %	
	Joriy baholarda	2024-y. baholarida	2010-y. = 100 %	Oldingi yilga nisbatan	Joriy baholarda	2024-y. baholarida	2010 y = 100 %	Oldingi yilga nisbatan
2010	78936,6	625788,8	100	107,1	12997,3	165572,8	100	105,9
2011	103232,6	672723,0	107,5	107,5	15951,8	172858,0	104,4	104,4
2012	127590,2	720486,3	115,1	107,1	20462,6	182710,9	110,4	105,7
2013	153311,3	773081,8	123,5	107,3	25388,8	196414,2	118,6	107,5
2014	186829,5	826424,5	132,1	106,9	32136,7	205252,9	124,0	104,5
2015	221350,9	885927,1	141,6	107,2	38 466,6	216131,3	130,5	105,3
2016	255421,9	938196,7	149,9	105,9	45 398,0	227802,4	137,6	105,4
2017	356453,8	979477,4	156,5	104,4	65 258,8	239648,1	144,7	105,2
2018	473652,8	1034328,1	165,3	105,6	102 879,6	265530,1	160,4	110,8
2019	594659,6	1104662,5	176,5	106,8	145 083,9	278806,6	168,4	105
2020	668038	1122337,1	179,3	101,6	162 013,3	281315,9	169,9	100,9
2021	820536,6	1212124,0	193,7	108,0	202 219,3	306071,7	184,9	108,8
2022	995573,1	1284851,5	205,3	106,0	240 210,4	322293,5	194,7	105,3
2023	1204485,0	1365797,1	218,3	106,3	289 371,4	342597,9	206,9	106,3
2024	1 454 573,9	1454573,9	232,4	106,5	365 894,6	365894,6	221,0	106,8

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (taqqoslama baholarda) 2010-yilda 625 788,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 1 454 573,9 mlrd so'mga yetgan. Natijada, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 828 785,1 mlrd so'mga yoki 2,3 baravarga oshgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati hajmi (taqqoslama baholarda) 2010-yilda 165 572,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 365 894,6 mlrd so'mga yetgan. Mazkur ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 200 321,8 mlrd so'mga yoki 2,2 baravarga oshganligini ko'rsatadi.

Aytish mumkinki, iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining iqtisodiy-huquqiy asoslarini yaratish va takomillashtirishdan iboratdir. Mazkur jarayonda milliy valyutaning joriy etilishi va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Geologiya sohasida joriy yilda 21 ta kon va istiqbolli maydon ochiq auksion orqali investorlarga sotildi. 2021-yilda yana 50 ta kon va istiqbolli maydon mahalliy va xorijiy investorlarga ochiq mexanizmlar asosida taklif etiladi. Bunday ishlarni boshqa yo'nalishlarda ham davom ettirishimiz kerak. Umuman olganda, kelgusi yilda 23 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalarni o'zlashtirish zarur. Natijada 226 ta yirik sanoat va infratuzilma obyekti ishga tushiriladi. Birgina Toshkent shahridagi Yashnobod texnoparkida yana 11 ta zamonaviy elektrotexnika korxonasi ishga tushirilib, u yerdagi korxonalar soni 17 taga, ish bilan band bo'lganlar soni esa 11 ming nafarga yetkaziladi. Toshkent,

8 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2010-2024-yillar bo'yicha statistik axborotnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.



Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida jami quvvati 760 megavatt bo'lgan yangi elektr stansiyalari ishga tushiriladi. Qashqadaryo viloyatida umumiy qiymati 3 milliard 600 million dollar bo'lgan, yiliga 1,5 million tonna kerosin, dizel yoqilg'isi va suyuqlashtirilgan gaz ishlab chiqaradigan majmua to'liq quvvat bilan faoliyat yurita boshlaydi<sup>9</sup>.

O'zbekiston Respublikasi sanoati mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish asosida izchil rivojlanib bormoqda. Respublika yer qa'ridan qazib olinayotgan va iqtisodiy aylanmaga jalb etilgan tabiiy gaz, neft, oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, ko'mir hamda boshqa foydali qazilmalar ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz mustaqillik yillarida inflyatsiya darajasini nazorat qilish, sanoat salohiyatini saqlab qolish va yoqilg'i-energetika tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan izchil siyosatni amalga oshirdi. Natijada sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi uchun zarur iqtisodiy sharoitlar yaratildi.

Sanoat tarmog'i O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida yetakchi o'rin tutadi. Mamlakat sanoat salohiyatining ortib borishi yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda sanoat tarmoqlari samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda (2-jadval).

2-jadval

2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati hajmi (2023 yilgi doimiy narxlarda, yillik tarkibi dinamikasi<sup>10</sup>)

№	Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2024-yilda 2020-yilga nisbatan (+;-)	2024-yilda 2020-yilga nisbatan, %
1	Sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati	147 293,5	176 415,3	212 562,2	255 515,4	309 185,7	161 892,2	209,9
1	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	24 076,0	24 547,4	29 185,4	33 222,3	37 061,9	12 985,9	153,9
2	Ishlab chiqarish sanoati	112 751,8	138 655,6	167 983,8	203 836,9	251 281,3	138 529,5	222,9
3	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	9 528,1	12 289,5	13 988,4	16 843,5	19 070,4	9 542,3	200,1
4	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	937,6	922,8	1 404,6	1 612,7	1 772,1	834,5	189,0

O'zbekiston Respublikasida sanoat tarmog'ini eksport faoliyati orqali rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda sanoat tarmog'ining eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish hamda eksport faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati hajmi (doimiy narxlarda) 309 185,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshib, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 209,9 foizga yetganligini ko'rsatadi. Bu esa mamlakat sanoat salohiyatining izchil rivojlanayotganligini va tarmoqning iqtisodiy o'sishdagi muhim o'rnini tasdiqlaydi.

Sanoat tarmog'i tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchi mavqega ega bo'lib, mahsulot va tovarlar ishlab chiqarish hajmida eng yuqori ulushni egallagan. Mazkur tarmoqning o'sish sur'ati 222,9 foizni tashkil etib, sanoat rivojlanishining asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, sanoat korxonalarini, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga marketing, axborot va konsalting xizmatlarini ko'rsatish, ko'rgazmalar hamda ommaviy axborot vositalari orqali reklama faoliyatini kengaytirish, eksport salohiyatini targ'ib etish va sanoat mahsulotlarini tashqi bozorlarga yo'naltirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-dekabrda "2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" gi PQ-2687-son Qarori<sup>11</sup>, mazkur chora-tadbirlar milliy sanoat mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish va eksport hajmini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda (3-jadval).

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 30 dekabr 2020 yil № 275-276 (7746-7747).

10 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2010-2024-yillar bo'yicha statistik axborotnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-dekabrda "2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" gi PQ-2687-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3080756>.



## 3-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2020-2024 yillar bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zgarishi dinamikasi<sup>12</sup> (2024 yilgi doimiy narxlarda)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020	2021	2022	2023	2024
Yalpi ichki mahsulot	mlrd so'm	1 122 337,1	1 212 124,0	1 284 851,5	1 365 797,1	1 454 573,9
	Fizik hajm indeksi, %	101,6	108,0	106,0	106,3	106,5
	Deflyator indeksi, %	111,6	113,6	113,8	112,2	113,1
Sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati	mlrd so'm	281 315,9	306 071,7	322 203,5	342 597,9	365 894,6
	Fizik hajm indeksi, %	100,9	108,8	105,3	106,3	106,8

O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2020-2024-yillardagi ma'lumotlari asosida tahlil qilganimizda, 2024-yilda sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati 365 894,6 mlrd so'mni tashkil etganligini ko'rish mumkin. Mazkur ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 6,8 foizga oshib, sanoat tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi ortib borayotganligini tasdiqlaydi.

X.N. Nabiyevnin ta'kidlashicha, sanoat korxonasi mahsuloti deganda korxonada faoliyatining foydali natijasi tushuniladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ishlab chiqarilgan brak mahsulotlar foydasiz natija bo'lganligi sababli, sotilgan ortiqcha tovar-moddiy boyliklar korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyati natijasi hisoblanmaganligi uchun hamda korxonada tarkibiga kirmaydigan qishloq xo'jaligi yoki boshqa tarmoqlar faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'linmalar mahsulotlari tegishli tarmoqlar natijalariga kiritilganligi sababli sanoat mahsuloti tarkibiga kiritilmaydi<sup>13</sup>.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarning malakasini oshirish, ularning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda yetakchi mutaxassislarining xorijiy davlatlarda stajirovka o'tashlarini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlar sanoat tarmog'ida inson kapitali sifatini oshirish va mehnat unumdorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sanoat korxonalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining malakasini doimiy ravishda yuqori darajada saqlab turish va ularning kasbiy kompetensiyalarini muntazam yangilab borish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida sanoat tarmog'i muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini va mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishida asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'layotganligini ko'rsatdi. Tahlillar davomida 2010-2024-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati hamda uning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi barqaror ravishda ortib borayotgani aniqlandi. Ayniqsa, ishlab chiqarish sanoati sanoat tarmog'i tarkibida yetakchi o'rin egallab, qo'shilgan qiymat yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Sanoat tarmog'ining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida korxonalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalari va sanoat korxonalarida o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda statistik ma'lumotlar sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son Farmoni. "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi O'RQ-707-son Qonuni. "Rasmiy statistika to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-5569619>.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2010-2024-yillar bo'yicha statistik axborotnomasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

<sup>13</sup> Nabiyev X.N. Sanoat statistikasi. O'quv qo'llanma. - T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son Qarori. "Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4926736>.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-dekabrda "2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" gi PQ-2687-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-3080756>.

5. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomalar. - Toshkent, 2020-2024-yillar.

6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining 2010-2024-yillardagi sanoat va makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plamlar.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" yillik statistik nashrlari.

8. IMF Outlook Database. - Washington, D.C.

9. Nabiyev X.N. Sanoat statistikasi: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2004.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>